

PUNKTUATSIYA

Har bir tinish belgisi muayyan qoidalar asosida qo'llanadi. Tinish belgilarining qo'llanishiga oid qoidalar to'plami **punktuatsiya** deyiladi.

Eslatma. Hozirgi o'zbek yozuvida 10 xil tinish belgisidan foydalaniladi:

- 1) nuqta – (.);
- 2) vergul – (,);
- 3) nuqtali vergul – (;);
- 4) ikki nuqta – (:);
- 5) tire – (–);
- 6) so'roq belgisi – (?);
- 7) undov belgisi – (!);
- 8) ko'p nuqta – (...);
- 9) qavs – (), [];
- 10) qo'shtirnoq – („“, « »).

Nuqta va uning qo'llanilishi

Nuqtaning yozuv belgisi sifatida ishlatilishi qadimgi arab manbalariga borib taqaladi. U o'zbek tilida tinish belgisi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ishlatila boshlangan. Nuqta o'zbek tilida, odatda, quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. His-hayajonsiz aytilgan darak, buyruq gaplardan so'ng.
Milliy istiqlool sharofati bilan yangicha tafakkur va yangicha fikrlash shakllanmoqda. O'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rma. Farzandlarimiz doimo sog'lom bo'lsin.
2. Atov gaplardan keyin.
Ilk bahor. Daraxtlar endi kurtak yoza boshlagan palla.
3. Ismi, otasining ismi (ba'zan familiya ham) qisqartirilganda, ularning birinchi harfidan so'ng.
M. Behbudiy, A. Fitrat, A. Cho'lponkabi ijodkorlarning nomi hamisha barhayotdir. A.S. Pushkin— rus poeziyasining quyoshi.
4. Nashriyot ishlarida, lug'at va ma'lumotnomalarda shartli ravishda qisqartirilgan ayrim so'zlarning birinchi harfi yoki bo'g'inidan so'ng.
va sh.k. (va shu kabilar); s.t. (so'zlashuv tilida); G'. G'. (G'afur G'ulom); Nav. (Navoiy); Toshk. (Toshkent); «O'qituvchi» nashr.; 1995-y.
5. Qo'shma gapning birinchi qismidan so'ng kuchli to'xtam bo'lsa, mantiqan biri ikkinchisiga bog'lanmagan qo'shma gaplar orasida ham nuqta ishlatiladi. Bunday hollarda ikkinchi gap ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun bog'lovchilari bilan boshlanishi mumkin.
Bobodehqon yerga baraka urug'ini ekish bilan band. Chunki dalalarda ish qizg'in.
6. Ba'zi bir hollarda yil, oy, kunni ifodalovchi raqamlardan so'ng ham nuqta qo'yilishi kuzatiladi: 21.03.2010.
7. Butunning qismlarini sanash uchun qo'llanilgan arab raqamlaridan so'ng ham nuqta ishlatilishi mumkin.
Tovushlar quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Unli tovushlar. 2. Undosh tovushlar.
8. Hisob-kitob ishlarida nuqta belgisidan ko'paytiruv alomati sifatida ham foydalaniladi. $2 \cdot 2 = 4$ (ikki karra ikki to'rt).

Vergul va uning qo'llanilishi

Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropada XV asrdan boshlab ishlatila boshlangan. O'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Undan quyidagi o'rinlarda foydalaniladi.

1. Uyushiq bo'laklar orasida.

Bolalarning xulqi, odobi, yurish-turishi, ko'cha-ko'yda, mahallada o'zini tutishi, do'stlari orasidagi mavqeyi, hurmati, oila yumushlariga qo'shayotgan hissasi bilan doimo qiziqib turish lozim (M. Inomova).

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi.

Uka, o'qishning erta-kechi bo'lmaydi. Men Sizni, oyijon, juda yaxshi ko'raman. Salom sizga, purviqor tog'lar!

3. Kirish so'z va kirish birikmalardan so'ng.

Shubhasiz, Vatanimiz jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olajak. Forobiyning yozishicha, inson jamiyatda, o'zaro munosa batlarda voyaga yetadi.

4. Tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so'z-gaplardan keyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun ham vergul qo'yiladi.

Ha, hushyor bo'lish har bir fuqaroning Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Xayr, biz jo'nab ketyapmiz. Xo'sh, xalq uchun siz nima ish qildingiz? Bu haqda o'ylab ko'rdingizmi?

5. Ajratilgan bo'laklar orasida.

Onaga, eng ulug' zotga, ehtirom chinakam insoniylik sanaladi. O'zbekistonda, jahonga yuz tutgan obod va ozod mamlakatda, demokratiya kundan kunga barqarorlashib bormoqda.

6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar orasiga.

Do'sting mingta bo'lsa ham oz, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p. Yurgan — daryo, o'tirgan — bo'ya.

7. Bog'langan qo'shma gaplarda ham vergul ishlatiladi.

Bilimli va tadbirkor bo'ling, lekin bu xislatlaringiz sizni xudbinlikka sira yetakmalasin. Yo biz boraylik, yo siz keling.

8. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlatiladi.

Ey, menga bir minutga qarab qo'ying.

9. Ko'chirma gap darak, buyruq gap bo'lsa, undan so'ng vergul qo'yiladi.

«Inson qalbi javohirlardek toza, pok bo'lmog'i lozim», — deb aytgan edi Abu Rayhon Beruniy.

140-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtaning ishlatilish o'rinlarini sharhlang.

Insonning nima ish qilayotganiga qarab, uning kimligini aytib bersa bo'ladi. (H. Hegel)

Qo'lingdan kelmagan ishni qilma. Haqiqiy buyuklik o'zini tuta bilishdan iborat. (F. Lafonten)

2005-yil — sihat-salomatlik yili. «Farzandim — jigarbandim». Dalalarim — bobolarim sho'r-sho'r peshonasi. Dalalarim — otalarim yag'ir-yag'ir yelkasi. Dalalarim — ayollarim xazon-xazon umri. (T. Murod)

— Menga ruxsatmi?

— Ruxsat.

— Boray bo'lmasa...

— Boring. Bu yoqlarga kelganda... mundoq... kirib turishni ham unutmang. (Murod Muhammad Do'st)

Di1navoz. Shu kishi to'g'risinda nima deysan?

Rahimbaxsh. Buyukdir.

Di1navoz. Shunga yurakdan hurmatim bor.

Rahimbaxsh. Hurmatga arziydir.

Di1navoz. O'zi esa ma'jus.

Rahimbaxsh. Insonliq ma'juslik yo musulmonlikka qaramaydir. Lolahardiyol insondir.

(A. Fitrat)

Toshkent. Mustaqillik maydoni. Navro'z tantanalarining boshlanishiga sanoqli daqiqalar qoldi. (Bayram reportajidan)

141-mashq. Matnni o'qing. Tinish belgilarining yozuvdagi o'rnini haqida fikr yuriting.

Bir kuni gazeta muharrirlaridan biri havaskor shoirdan xat oldi. Shoir o'ta mazmunsiz she'r yozib, tagiga xat ham ilova qilib qo'ygan ekan:
—Tinish belgilarini qo'ymadim, uzr, o'zingiz qo'yib olarsiz. Fig'oni falakka chiqqan muharrir darhol havaskor shoirga javob xati yo'lladi:
— Kelgusi safar tinish belgilarining o'zini qo'yib yuboravering, so'zlarini o'zim topib qo'yarman.

142-mashq. Vergulning qo'yilish sabablarini izohlang.

Eng muhimi, mustaqillik tufayli odamlarimizning dunyoqarashi va tafakkuri, ma'naviy qiyofasi o'zgardi, jamiyatimizda ahillik, muruvvat, mehr-oqibat, tinchlik va osoyishtalik qaror topdi.
Yaxshiga yondash, yomondan qoch. Mard bir o'lar, nomard — ming.
— Bu senmi, qizim!
— Men, otajon! (A. Qodiriy)
Pastda, yigirma metrcha quyida, naq oyoqlari ostida Chuqursoy quyosh nurida tasmaday yaltirab oqib yotardi. (I. Hasanov)
Illat izlaganga illatdir dunyo,
G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo,
Kim neni izlasa topgan begumon,
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo. (E. Vohidov)
— Ha, xola, uyda nima qilasiz?
— Uxlayin, bolam, men qari narsa yarim kechagacha o'tirolamanmi? Sizlar, yoshyalang o'ynab-kulib ko'ngillarni yozinglar. Men orom olay... (A. Cho'lpon)
Sidiqjon gap boshlamoqchi bo'lib:
— Qalay, — dedi va sap-sariq qamishzorining u tomonida oqarishib turgan daryoni ko'rsatdi, — bahavo joylar ekanmi? (A. Qahhor)

143-mashq. Uyga vazifa. Vergulning gap ma'nosiga qanday ta'sir qilayotganini aytib bering.

Afandi bir kuni boyga:
— Siz odam emassiz, eshak! — deb aytdi.
Bundan boyning nihoyatda jahli chiqib Afandini qozixonaga sudradi. Afandi shunday deganligini tan oldi, lekin men boyni «Siz — odam, emassiz eshak» deganman deb jazodan qutulib ketdi.

So'roq belgisi va uning qo'llanilishi

So'roq belgisining kelib chiqishini lotincha *questio* — so'roq so'ziga olib borib taqaydilar. So'roq ma'nosida mazkur so'zning birinchi harfi «Q» ishlatila boshlagan, keyinchalik uning shakli hozirgi holatga (?) kelib qolgan, o'zbekcha matnlarda 1885-yildan boshlab uchraydi. 1900-yildan so'ng muntazam ishlatila boshlangan. So'roq belgisi quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. So'roq gaplarning oxirida.

Yomonlikning jazosiz qolmasligini bilasizmi? Navoiyning tilshunoslikka bag'ishlangan qanday asari bor? Vazifani bajarib bo'ldim (darak gap). Vazifani bajarib bo'ldim?(ohang o'zgaradi).

2. Kim? nima? qanday? qanaqa? qaysi? kabi so'roq olmoshlaridan so'ng.

Rang-tusni bildiruvchi sifatlar qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi.

3. Gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga qo'yiladi. «Toping!» ma'nosida.

Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» qissasida (?) o'zbek xalqining yaqin o'tmishi haqida hikoya qilinadi. $5 \cdot 5 = ?$ (matematikada).

Undov belgisi va uning qo'llanilishi

Undov belgisi o'zbek tiliga rus tilidan o'tgan. Mutaxassislarning fikricha, u lotincha lo — undov so'zidan kelib chiqqan bo'lib, unga nuqta (.) ning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Undov belgisi quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Kuchli his-hayajon bilan aytilgan gaplardan so'ng qo'yiladi.

Oqpodsho yerdan bir siqim tuproq oladi.

— *Ana tuproq, mana tuproq!* — *deydi.* — *Bo'rsildoq tuproq, mag'izdor tuproq, hosildor tuproq. Tuproqmisan-tuproq!* (Tog'ay Murod)

2. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlatiladi.

Siz ham oyoqni ishlating! — *deb buyurdi. Suv ostida o'pqonlar ko'p. Tortib ketmasin!*

(P.Qodirov)

3. So'z boshida kelib, kuchli his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng qo'yiladi.

Ey arslonlar arsloni! Mening yozuqlarimdan o't, mening qo'limni tut, belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber! (A. Fitrat)

4. *Ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom* kabi so'z-gaplar hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng qo'yiladi.

Balli-balli! — *dedi Rahim va Sharifga qarab im qoqdi.* (A. Qodiriy)

Yo'q! Borolmayman, — *dedi qayrilib.*

5. Matn ichida alohida ta'kidlangan, ajratib ko'rsatilgan so'zlardan keyin qavs ichida berilishi mumkin.

«Boburnoma»da tarix, etnografiya, til, adabiyot geografiya, biologiya, botanika, hatto tabobatga (!) oid g'oyat qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

6. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchta belgi qo'yiladi.

Charos kafti bilan yuzini to'sgancha o'zini orqaga tashladi.

— *A-a-a!!!* — *dedi chinqirib.* (O'. Hoshimov)

— *Chiqar buni jallod!!! Jallodlar harakatlandilar.*

— *Xanjarimiz qonsirag'on!* (A. Qodiriy)

7. His-hayajon bilan aytilgan so'roq, shuningdek, ritorik so'roq gaplardan so'ng.

Kimdir seni kutsa, kimnidir sen ham sog'insang, qanday baxt bu! (O'. Hoshimov)

144-mashq. Gaplarni o'qing. So'roq belgisining qo'yilish o'rinlarini izohlang.

U tug'ilib esini tanigandan buyon qanday yashadi, nimalar qildi? Odamdek yashadimi? Biron dardmandga dardkash bo'ldimi? Yig'lagan yetimning ko'z yoshini arttdimi? Biron muhtojning og'irini yengil qildimi? (S. Ahmad)

— Qayerdانسiz? — so'radi kimdir Nazir otadan. Nazir ota aytdi.

— O'zinglar-chi?

— Yakkabog'dan. (O'. Umarbekov)

— Bir narmdek (?) yoy bila bir kiyikning qo'ltig'iga otdim. («Boburnoma»)

— Hovlilaringiz katta ekan... — dedi u nihoyat chidolmay. Charos unga yarq etib qaradi.

Ko'zlarida sevinch uchqunlari bir lahza lovullab ketganday bo'ldi. Yodgor uning bu qarashidan «bordingizmi?» degan savolni uqdi.

— Nimalarni ko'rdingiz? — dedi Charos jilmayib.

— So'rilaringizning panjarasi chiroyli ekan.

— Yana?

— Oshxonangizdagi derazaning bir ko'zi sinibdi.

— Yana?

— Vodoprovdosingiz muzlab qolibdi.

— Uni eritdik... Yana? (O'. Hoshimov)

145-mashq. Matnni o'qing. Undov belgisining qo'yilish o'rinlarini izohlab bering.

Ey, Chingiz va Temur askarlarini ko'rgan qop-qora tog'lar! Ey, Vatanim Turkistonning eski davrini ko'rgan tog' bobolar! Chin ayting! Bu yigirmanchi asr madaniyatini ham ko'rub turubsiz! Nimaga bu madaniyatga kirmakka o'zlari harakat qilmaydilar?

Ey vatandoshlarim! Qachong'acha bu g'aflat? Nimaga buncha xushyoq massizlar? Axir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko'z oldingizga kelub turg'on ilm va ma'rifat mevasidan foydalanmasdan nimaga og'izlaringizni ochub qarab turasizlar? Nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar? Uyqudan ko'z ochinglar! Uyqudan ko'z ochinglar! Urununglar! Ilm-ma'rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o'tdi... (A. Cho'lpon)

146-mashq. Gaplarni o'qing. Undov belgisining qo'yilish o'rinlarini izohlang.

Suv! Suv! — deb qichqirardi mingboshi. Suv! Yuragim kuyib ketdi... yonib ketdi!.. Suv! Suv!!! (A. Cho'lpon) Men o'zbek xalqiga haykal qo'yaman! (T. Murod) Odamlar qiziq-a! Dunyoda bir-biriga o'xshaydigan ikki odamni hech qachon uchratib bo'lmaydi. (O'.Hoshimov) She'rim! Yana o'zing yaxshisan. Bog'ga kirsang gullar sharmanda. (U. Nosir) Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsinda. Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi! (A. Qahhor)

147-mashq. Uyga vazifa. Matnni o'qing, undov belgisining qo'yilish sabablarini izohlang.

— Pushti panoho! — dedi xudaychi, xiyonatkor o'z ixtiyori bilan kelib, domi adolatingizga taslim bo'lmoqchi.

— Xiyonatkoring' kim?

— Mirzo Anvar!

Xon seskanib ketdi, hamnishinlar ham alang-jalang bo'ldilar.

— Keltir!

Xudaychi qullug' qilib orqasiga qaytdi. Dahlizdagi Anvar birinchi xonadagi a'yonni hayratga solib, ikkinchi tanobiyning bo'sag'asida, jallodlar o'rtasida to'xtadi va xonga ta'zim etdi.

Raqibni bu qadar jasoratda ko'rgan Xudoyorning kiprik ostlari uchib, saqol tuklari silkindi va biroz so'z topolmagandek tamshanib turdi.

— Sen bizga xiyonat qilding' it uvli! Anvar bosh irg'adi.

— Iqrorman.

— Tuzimni unutding'!

— Tonmayman!

— Iqrorsan, tonmaysan, o'bdon ish! — dedi zaharxanda qilib xon, — o'luvdan ham qaytmaysan?!

— Men sizdan marhamat so'rab kelgan emasman! — dedi Anvar iljayib, — o'zimni o'limga berib bir gunohsizni qutqarish uchun kelganman!

Hamnishinlar lablarini tishladilar. Xudoyor istehzoli kuldi.

— Pusulmonchilik qig'onsan-da!

— Albatta! — dedi Anvar, — boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib, pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonchilik bilan o'lishni o'bdan bildim! (A. Qodiriy)

Qavs va uning qo'llanilishi

Qavs o'zbek yozuvida XIX asrning oxirgi choragidan boshlab ishlatila boshlangan. Dastlab «Turkiston viloyatining gazet» da 1873-yilda ishlatilgan. U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Kiritma gaplarda. *O'zbekiston paxta ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanib (Xitoy, AQSH, Hindiston va Pokistondan keyin beshinchi o'rinda turadi), eksport bo'yicha AQSHdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi.*

2. Remarkalarda. *Xon (yolg'iz). Shu tiriklikdan-da bezdirdilar meni (Turib yuradur). Bir dushmanimning qoni qurimayin yana bittasi chiqib qoladur. (A. Fitrat)*

3. Olingan misollar yoki gaplar manbayida. *Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidur. (Abdullo Avloniy) Jannat onalar oyog'i ostidadur. (Hadisdan). «Qasosli dunyo». («Avlodlar dovoni» romanidan)*

4. Izoh ma'nosidagi so'z yoki so'z birikmalarida.

Ro'za hayiti (Iyd al Fitr) va Qurbon hayiti (Iyd al Adha)ning birinchi kuni O'zbekiston Respublikasi hududida dam olish kuni deb belgilangan. Demokratiya yunoncha so'z bo'lib, tarjimada xalq hokimiyati (demos — xalq, kratos — hokimiyat) ma'nosini bildiradi.

5. Shaxs, joy, asar, hodisa va shu kabilarning ikki xil varianti berilsa, ulardan biri qavsga olinadi. *«Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»). Shuhrat (G'ulom Aminjonovich Olimov) atog'li o'zbek yozuvchilaridan biridir.*

Eslatma. Qavsdan matematika fanida ham keng foydalaniladi.

$(57 + 38) - 17 = ?$

[] ko'rinishidagi qavsdan foydalanish hollari ham ko'p uchraydi. Masalan, egalik qo'shimchasi qo'shilganda *shah [a] ri, o' r [i] ni, sing [i] lisi* so'zlaridagi «a», «i» tovushlari qoidaga ko'ra tushiriladi kabi.

Ko'p nuqta va uning qo'llanilishi

Ko'p nuqta XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbekcha matnlarda ishlatila boshlangan. 1876-yildan e'tiboran «Turkiston viloyatining gazetisi» da muntazam qo'llangan. Ko'p nuqta quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmay qolgan gaplar oxirida.

To'ra biroz o'ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonini ko'rsatdi.

— *Mana shu imperiya...*

Miryoqub hech narsa anglamadi. (A. Cho'lpon)

2. So'zlovchining cheksiz his-hayajonini, beqiyos tabiat manzaralarini ifodalash uchun.

Do'xtir ayol og'iz berkitib piq-piq yig'ladi.

— *Men... men O'zbekistonda besh-olti yil ishlab edim, — deya yig'ladi. — Bechora xalq-a, bechoragina xalq-a.. (T. Murod). Qish... Butun atrof oppoq libosda...*

3. Matn (jumla) qisqartirilsa.

— *Anovi kuni menga bir oyat aytib edingiz?*

— *Xo'sh, xo'sh?*

— *Ilkimdin kelguncha... — deb boshlanar edi.*

— *Ha-ha, bo'tam, lekin bu oyat emas, hazrat Navoiyning hikmatlaridur. (X. To'xtaboev)*

4. Fikr bo'lib-bo'lib ifoda qilinsa yoki duduqlanib aytilsa.

Muhammadyor yolg'iz:

— *Turkistonda birinchi m...m...m... artaba tia... t... t... tr, — dedi-da, fikrg'a toldi. (A. Cho'lpon)*

5. Suhbatdoshining gapi javobsiz qoldirilsa.

— *Manavi dub eshiklaringizni yelkamda tashib kelganman. Tushundingizmi?*

— ...

— *Tushundingizmi, deya pman? (X. Sultonov)*

6. Tushirib qoldirilgan harf, so'z yoki boshqalar o'rnida.

Nuqtalar o'rniga kerakli harfni qo'yib ko'chirib yozing.

Xayri...x, a...loq, ...abar.

148-mashq. Gaplarni o'qing. Qavsning qo'yilish o'rinlarini izohlang.

Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. (Dilnavoz boshini ko'tarib) Oh... Ey ko'k tovushi, to'g'ri so'ylading! Dunyoda kuchsizlikdan yomonroq narsa yo'q. (A. Fitrat) Birjada yetkazib berish vaqti o'tib ketgan tayyor molni sotish va sotib olish (forvord) bitimlari, bir qolipdagi mollar-ni sotish yoki sotib olish (fyuchers) bitimlari hamda kelajakda sotib olish bo'yicha oldi-sotdi (opsion) bitimlari tuziladi. Dehqon (fermer) xo'jaliklariga biriktirilgan yer maydoni 10 yil ichida 30 baravarga o'sdi. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznesfond)ni tashkil qilish haqida Prezident Farmoni (1995-yil 26-iyul) ni amalga oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn («lkki til muhokamasi») asarida fors-tojik va turkiy tillar bir-biriga solishtiriladi. Abdulla Qodiriy (Julqunboy)ning «O'tgan kunlar» romani uning o'ziga qo'yilgan boqiy haykalidir.

149-mashq. Gaplarni o'qing. Qavs va undov belgilarining qo'yilish sabablarini tushuntiring.

Biz oltmish student dorulfununning adabiyot bo'limida besh yil (!) tahsil ko'rdik, lekin Alisher Navoiyni bilmasdan ketaverdik. (E. Vohidov)
Mavlono (eshikka qarab). G'ulom Nabi! G'ulom Nabi!
G'ulom Nabi (kelib). Labbay!
Mavlono. Bizning bir ishimiz bor. Ichkariga kishi qo'yma!
G'ulom Nabi. Xo'p. (Chiqar) (A. Fitrat)
Tabib kosadan barmog'iga biroz ilashtirib yaladi va darrov tuplab tashladi.
— Zahar ichibdi!
Otabek sapchib turib ketdi, tusi qo'rqinch holga kirgan edi.
— Bekor gap!
Tabib Otabekning hozirgi holatidan dahshatga keldi. (A. Qodiriy)
Dehqon (fermer) xo'jaliklari O'zbekistonda tadbirkorlik shakllaridan biridir. Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'li) o'zbek romanchiligini yangi takomil bosqichiga ko'targan adiblardan biridir. Zebi (Zebinisa)ning qish ichi yuragi siqilib zanglab chiqqan ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan... edi. (A. Cho'lpon)

150-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o'qing. Ko'p nuqtaning ishlatilish sabablarini tushuntiring.

— E-e, otam... — Qo'zivoyni hiqichoq tutib qoldi. — X-xush ke-kelib... h-hiq... siz... H-hozir sizni... (M. Ochilov). Tor sadolari yuraklarni zirillatib tilga kirganidan keyingina zal asta-sekin tinchiy boshladi. O'sha ondayoq Alimardonning tiniq ovozi osuda parvoz etdi: «... Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...». (O'. Hoshimov)
Xoji Ahmad o'lar vaqtida Muhammadyorga qarab:
— O'g'lim! Meros sen...ga...o'lturgan...joy... Vasiyatim...- o'qi.. o'..qu..o'qu..o'qi..Men.. r-r-r..zomen., — deb jon taslim qildi. (A. Cho'lpon)
... O'sha kecha shahar ko'chalarida uzoq aylanib yurdim. (O'. Hoshimov)
— Yig'layman, to'yib-to'yib yig'lab olaman goho. Pahlavonda ham yurak bor, uning ham g'am-g'ussasi bor, ukam... (X. To'xtaboyev)
Asablar,
Asablar,
Asablar...
Sababsiz sochilgan g'azablar
Gunohsiz chekilgan azoblar. (E. Vohidov)

Tire va uning qo'llanilishi

Tireni amaliyotga rus yozuvchisi N.M. Karamzin (XVIII asr) kiritgan. U o'zbek yozuvida XIX asrning 70-yillaridan boshlab ishlatila boshlangan. Tire quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Dialoglardagi har bir gapning boshida.
 — *Amaki, o'ylab gapiryapsizmi? Qancha yo'l yurib kelganimizni bilasizmi?*
 — *Bilmayman. Qayerdan kelganingizning menga farqi yo'q.*
 — *Siz tabibmisiz o'zi?*
 — *Odamlar shunaqa deyishadi. Olloh istasa, men bir vositachi bo'laman-u, dardmandga shifo yetadi. Bo'lmasa yo'q.*
 — *Nima mening oshnamni davolashni Xudoyingiz istamayotibdimi?* — dedi Kesakpolvon g'ijinib.
 — *Olloh bir meniki emas, barchamizniki,* — dedi chol ovozi bir parda ko'tarib. — *Siz nomusulmon odamga o'xshab so'zlar ekansiz. (T. Malik)*
2. Bog'lamasiz qo'llangan ot kesim bilan ega orasida.
Til — millatning qalbi. Yer — don, dehqon — xazinabon. Mehnating — boyliging.
3. Uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin.
O'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik — barchamiz bitta yurtning farzandlarimiz.
4. Muallif gapi bilan ko'chirma gap orasida.
«Oddiylik axloqiy barkamollikning bosh shartidir», — deb yozgan edi L.N. Tolstoy.
5. Ma'lumot mazmunidagi asosiy gapdan so'ng tartib bilan sanalgan har bir gap boshida.
1996-yil 26-aprelda ta'sis etildi:
 — *«Amir Temur» ordeni;*
 — *«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni.*
6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda ikkinchi gapning kesimi tushirilsa.
Olamni quyosh yoritadi, insonni — ilm.
7. Ayrim so'z yoki gaplar izohlansa, ularning o'rtasida.
O'zbekiston Milliy sug'urta kompaniyasi — «O'zbekinvest». Veksel — qimmatbaho qog'oz, pul qarz olganlik haqidagi tilxat, qarz hujjatidir.
8. Zid ma'noli bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida.
Vaqting ketdi — baxting ketdi.
9. Kirishlar va ajratilgan bo'laklar har ikki tomonidan vergul yoki tire bilan asosiy bo'laklardan ajratiladi.
Biz — yoshlar — millatning tayanchi, Vatanning ishongan tog'larimiz. Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasida — bir paytlari bu yerdan turib ulug'bobimiz osmon ilmini o'rgangan edi — katta ko'lamda ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi.
10. Tenglik, taqqoslash va hokazo ma'nolarni bildiruvchi so'zlar orasida:
Toshkent — Andijon avtomobil yo'li ta'mirdan chiqarilmoqda.
11. Nashr, kitobot ishlarida.
Sultonov X. Onamning yurti. Qissa va hikoyalar. — T.: «Adabiyot va san'at nashriyoti», 1987.
Eslatma: Hisob-kitob bilan bog'liq fanlarda tire ayirish belgisini bildiradi: 307 – 23.
Bugun Toshkentda — 3°C sovuq bo'ladi.

151-mashq. Matnlarni ko'chirib yozing. Tirening qo'yilish sabablarini tushuntirib bering.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 137-moddasiga muvofiq quyidagi kunlar bayramlar sifatida dam olish kunlari deb belgilandi:

- 1-yanvar — Yangi yil;
- 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni;
- 21-mart — Navro'z bayrami;
- 9-may — G'alaba kuni (Xotira va qadrlash kuni);
- 1-sentabr — Mustaqillik kuni;
- 8-dekabr — Konstitutsiya kuni.

Jo'rayev N. Agar ogoh sen... : Portretga chizgilar: Siyosiy esse. — T.: «Sharq», 1998.
«Turkcha baxtsizdir. Ming yillardan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim, boydir...» — deb yozgan edi A. Fitrat ona tilimiz haqida.

Ko'laga yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

— Kim bu?

— Men Kumush!

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

— Ket mundan!

— Men Kumush!.. — dedi Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki, dunyodagi eng yaqin kishisi unga «ket!» amrini bergan edi. (A. Qodiriy)

152-mashq. Matnlarni o'qing. Tinish belgilarining qo'yilish o'rinlarini izohlang.

1994-yil 5-mayda quyidagilar ta'sis etildi:

— «O'zbekiston Qahramoni» unvoni va «Oltin Yulduz» medali;

— «Mustaqillik» ordeni;

— «Do'stlik» ordeni;

— «Jasorat» medali;

— «Shuhrat» medali.

Bugun ko'nglimiz yanada butun. Qaror topgan istiqbolimiz, bosh shiorimiz («Yurtim deb, elim deb yonib yashaylik»), bosh g'oyamiz («O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat»), yetakchi g'oyamiz («Turkiston — umumiy uyimiz»), mafkuraviy intellektual g'oyamiz («Kuch — bilim va tafakkurda») bor. (A. Ibrohimov)

«Turon» — birinchi o'zbek milliy teatr truppasi. Bo'taboy bularni oldinga o'tkazib orqadan yurdi va Samandarovga yondashib, undan sekin:

— Tinchlikmi? — deb so'radi.

— Tinchlik, — dedi Samandarov.

— Gazet chiqqani rostmi?

— Rost.

— Endi nima bo'ladi?

— Nima bo'lar edi, odamlarning saragi sarakka, puchagi puchakka chiqadi. (A. Qahhor)

«Til unutildi, xalq yodi unutildi, demakdir. Tili yo'q xalqni xalq deb bo'ladimi», — deb yozgan E. Vohidov.

153-mashq. Gaplarni o'qing. Tirening nima sababdan ishlatilayotganini aytib bering.

— Xudo xudo bo'la turib avval jon beradi, undan keyin jon oladi. Sen kimsan? Xudodan zo'rimsan, taqsir?

— Bay-bay! Tiling kesilsin, badbaxt! Kofir!

So'fi o'sha xilda gapirganicha pining boshiga kelib to'xtadi.

— Yer jonidan ilgari beradi, keyin oladi. Yerdan ham kuchlimisan, taqsir?

— Nima bo'ldi senga, so'fi? Jinni bo'ldingmi?

— O'zlari jinni, taqsir, o'zlari! Eshaklari jinni, itlari!

— Hay kim bor? Bolalar! — deb qichqirdi eshon o'rnidan turib orqaga tisarildi.

— Qochma, taqsir! Hovuchingni och! Men gadoy bo'lsam ham xurjunimning ikki

ko'zi to'ladur... Sendaqalarni necha yil boqishga yarayman. (A. Cho'lpon)

Halol ish — lazmatli yemish. Erga navbat — sherga navbat. Bilim — kuchda, kuch — bilimda.

Ilm — yorug'lik, jaholat — zulmat. (Xalq maqollari).

Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati. — T.: 1990. — 528 bet.

Qo'shtirnoq va uning qo'llanilish o'rinlari

Qo'shtirnoqni amaliyotga rus olimi prof. A.A. Barsov kiritgan. O'zbek yozuvida u kiritish belgisi sifatida XIX asrning 80-yillaridan boshlab uchraydi. Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda ishlatiladi.

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi.

«Apil-tapil qilingan ishning umri qisqa», — degan edi Sa'diy Sheroziy. I. V. Gyote shunday deb aytgan edi: «Donishmandlik faqat haqiqatdadir». «Er kishiga zeb-u ziynat,— degan edi Alisher Navoiy, — hikmat va donishdir.»

2. Sitatlar qo'shtirnoq ichida yoziladi.

Buyuk yozuvchimiz A. Qahhorning quyidagi gaplari halihanuz o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q: «Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, biri yashnab kiradi. Tutab kirgan yozuvchi uzoq tutaydi, ko'nglidan chiqarib emas, qornidan chiqarib yozadi.

Yozuvchilikka cho'g'day yashnab kirgan yozuvchi asardan asarga yashnayveradi...»

3. Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar, ishlatilishi odat tusiga kirmagan, eskirgan yoki yangi qo'llanayotgan, kesatq, piching, do'q-po'pisa va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi leksik birliklar qo'shtirnoq ichida yoziladi.

... oradan yana bir necha oy o'tib, uchinchi marta sud bo'lgan. Bu safar Botirovning «jinoyati» o'n bir yillik qamoq bilan «taqdirlandi». (T Malik) «Xalq artisti», beliga o'q tekkanday erta-yu kech to'rdagi karavotga yonboshlab «Teatr» jurnalini varaqlaydi, xalq artisti bo'lmoq sirlarini axtaradi, chamasi. (E.A'zamov)

4. Badiiy asarlar, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo'shtirnoq ichida beriladi.

«Lison ut-tayr» (Qush tili) asari haqida suhbatlashdik. «Ma'rifat» gazetasi, «Saodat» jurnali, «Mening oppoq kabutarlarim» spektakli, «Sohibqiron» dramasi, «Amir Temur» portreti.

5. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo'shtirnoq ichida yoziladi.

«Uzdunrobita» qo'shma korxonasi, «Kochxolding» konserni, «Kamolot» ijtimoiy harakati, «Istiqlool» tennis sport majmuasi, «Diyor» savdo uyi, «Ekosan» xalqaro jamg'armasi, «O'zbekavtotrans» Davlat aksionerlik korporatsiyasi, «O'ZDEUavto» O'zbekiston — Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodi, «Chorsu» mehmonxonasi.

6. Transport (mashina, samolyot, avtobus va sh.k.) larning markasini bildirgan so'zlar, o'simliklarning turini, mahsulotlarning nomini ifodalovchi leksik birliklar qo'shtirnoqqa olinadi.

«Neksiya» rusumli yengil mashina, «Boing» samolyoti, «Otayo'l» mikroavtobusi, «Rayhon» alkogolsiz ichimligi, «Kibo» oyoq kiyimi, «Hojimatov damlamasi».

7. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo'shtirnoq ichida beriladi.

«El-yurt hurmati» ordeni 1998-yil 28-avgustda ta'sis etildi. Professor Q.G'. Abdullayev «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» faxriy unvoni bilan mukofotlandi.

8. Qonun, farmon, buyruqlarning nomi, ayrim bandlari qo'shtirnoq ichida beriladi.

1995-yilning 6-may kuni «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida» Qonun qabul qilindi.

9. Sinflarning tartibini bildiruvchi harflar, baho ballari ham qo'shtirnoq ichida beriladi.

11-«A» sinfi «Quvnoqlar va zukkolar» bahsida g'olib chiqdi. O'qituvchimiz bugungi javobimga «besh» baho qo'ydi.

154-mashq. Qo'shtirnoqning qo'yilish sabablarini tushuntirib bering.

1996-yilning 23–26-aprel kunlari Toshkentda to'qimachilik va ko'ncilik sanoatining birinchi xalqaro «Osiyo: gazlama, charm–96» ko'r gazmasi bo'lib o'tdi. M. Qayumovning «Ismoil Buxoriy», N. Mahmudovning «Bahouddin Naqshband» hujjatli filmlari namoyish etildi. Yaponiyalik Noriko Magosaki xonim «Yapon va o'zbek tillarining qiyosiy tavsifi» nomli ilmiy risola yozib, nashr qildirdi. «Qozi» o'z ishiga puxta bo'lsa-da, xojasi-ning martabasini izzat qilib, «siz buyuring» deganday qaradi. (T. Malik) «Tanqid — kelajakning mevasi», — deydi dono xalqimiz. «Shaharlar xotirasi» yodgorlik majmuyi haqida «O'zbekiston ovozi» gazetasida maqola berishdi.

155-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o'qing. Qayerlarda qo'shtirnoq ishlatilishi

lozimligini aniqlang, izohlab, so'ng gaplarni daftaringizga ko'chirib oling.

Markaziy Osiyo madaniyati haftalik gazetasini muntazam o'qib turaman. Vatan, millat so'zlarini ishlatmay turib ham vatanparvarlik, millatparvarlik mohiyatini ochib berish mumkin. Odam keksaygandan keyin yosh bolaga o'xshab qolarkanmi, mana shu yildan boshlab sal narsani ham ko'ngilga oladigan tegmanozikka aylandi-qoldi. (X. Sultonov) Fitrat so'zining lug'aviy ma'nosini ikki jildlik o'zbek tilining izohli lug'atidan topolmaysiz. Navoiy lug'atida tabiat, tug'ma tabiat, yaratilish deb izohlangan. (B.Qosimov) Odob — oltindan qimmat, — deydi xalqimiz. Zarafshon—Nyumont qo'shma korxonasining mahsulotlari dunyo bozorida ancha xaridorgir sanaladi. Shoir B. Boyqobilov Navoiynoma tetralogiyasi uchun Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofotini olish baxtiga sazovor bo'lgan.

Ikki nuqta va uning qo'llanilish o'rinlari

Ikki nuqta o'zbek yozuvida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e'tiboran ishlatila boshlangan. U quyidagi o'rinlarda ishlatiladi:

1. Shaklan tugallangan, lekin mazmunan keyingisi birinчисining uzviy davomi sanalgan bog'lovchisiz qo'shma gaplardan so'ng.

Oltmishga kirib bildim: umrim bekorga o'tmabdi, odamlarga kerakli ekanman hayotda iz qoldiribman. (A. Qahhor)

2. Ko'chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan so'ng.

Bundan so'ng Qutidor turib ichkariga yugurdi, yarim yo'ldanoq tanchada o'tiruvchi Oftoboyim va Kumushga qichqirdi:

— Sir ochildi! (A. Qodiriy)

3. Uyushiq bo'laklardan oldin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan keyin.

O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari: Davlat bayrog'i, Davlat gerbi va Davlat madhiyasi milliy iftixorimiz, sharaf va shonimiz sanaladi.

4. Reja, mavzu, qaror qilindi kabi so'zlardan so'ng.

Mavzu: «Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni».

Yuqoridagilar asosida yig'ilish qaror qabul qildi:

I. Jamoaning Navro'z bayramiga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb topilsin.

II. Navro'z — umumxalq bayramini ko'tarinki ruhda munosib kutib olish uchun yana zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

5. Uslubiy ravonlikni, muxtasarlikni ta'minlash maqsadida turli xil rasmiy ma'lumotlarda, nashr ishlarida ayrim so'zlardan keyin.

Toshkentda «Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquqning dolzarb masalalari» mavzusida uchinchi an'anaviy respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi bo'lib o'tdi.

6. Sport musobaqalarida raqiblar o'rtasidagi hisobni ifodalash uchun olingan ochkolar yoki kiritilgan gollarning nisbatini belgilash uchun.

Sidneydagi XXVII yozgi olimpiada o'yinlarida hamyurtimiz Muhammadqodir Abdullayev raqibini 27 : 21 hisobi bilan yengdi.

«Andijon» va «Paxtakor» komandalari o'rtasidagi o'yin durang natija bilan tugadi— 2 : 2.

Eslatma: Hisob-kitob ishida bo'luv alomati sanaladi. 100 : 2 — 50

156-mashq. Gaplarni o'qing. Ikki nuqtaning qo'yilishi sabablarini tushuntirib bering.

1. Kurashda bir tabiat qonuni bor: polvon, davrada mag'lub bo'lsa, taqdirga tan berib ketmaydi.

(T. Murod) 2. Abdulla Avloniy shunday degan edi: «Ilm — dunyoning izzati, oxiratning

sharafatidir, Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdur».

3. Ma'naviy-axloqiy tarbiyalangan inson shunday insonki, u shariat, tariqat va haqiqat borasida mukammaldir.

Unda to'rt narsa shakllangan bo'ladi: yaxshi so'z, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma'rifat. Uning dili

pok-u tili pok, ishi va niyatlari ham pokdir. (Bahouddin Naqshband) 4. O'zbeklar orasida

qadim-qadimdan chinakam insoniy fazilatlar: do'stlik, mehr-oqibat, odamgarchilik, axloqiy-

teranlik ulug‘lanib kelgan. 5. Mavzu: «O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va buning olamshumul ahamiyati». 6. Dam olish dasturi: 23.35. «Jazda faqat qizlar». 7. Tahririyat manzili: 110000, Termiz shahri, Navoiy shoh ko‘chasi, 71-uy. Tel: 25-04-92. 8. «Neftchi» (Farg‘ona) va «Navbahor» (Namangan) futbol komandalari o‘rtasidagi uchrashuvda hisob ochilmadi — 0 : 0.

Nuqtali vergul va uning qo‘llanilish o‘rinlari

Nuqtali vergul o‘zbek yozuvida 1885-yildan boshlab uchraydi. U quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi.

1. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan tugal fikrni anglatib, bir-biriga yaqin bo‘lmagan hollarda.

Lekin avtor shu kichkinagina hikoyada katta ish qiladi; o‘quvchining ko‘z oldiga odamning havasi keladigan, har qanday kishining muhabbatini o‘ziga qaratadigan, har qancha izzat qilsa arziydigan va bu izzatga o‘zining jafokashligi, g‘ayrati, farosati, el-yurt uchun qayg‘urishi bilan sazovor bo‘lgan bir chol keladi. (A. Qahhor)

2. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibiga kirgan sodda gaplardagi voqealar bir-biriga qiyoslanganda.

Ish kuchini elga berma, yerga ber; jamg‘armani selga berma, elga ber!

Yaxshini yomon dema, olishing bo‘lsa ham;

Yomonni yaxshi dema, yaqining bo‘lsa ham.

3. Uyushiq bo‘laklar guruhlanib, o‘zaro vergullar yordamida bir-biridan ajratilganda, har bir guruhni anglatuvchi so‘zdan keyin.

Gerb rangli tasvirda bo‘lib, Humo qushi kumushrangda; quyosh, boshog‘lar, paxta chanog‘i va «O‘zbekiston» degan yozuv tillarangda; g‘o‘za shoxlari va barglari, vodiylar yashil rangda; tog‘lar havorangda; chanoqdagi paxta, daryolar, yarimoy va yulduz oq rangda beriladi.

4. Reja, qaror, farmon, buyruq, qonun va shu kabilarning oxirgi bandi dan tashqari har bir bandi oxirida.

Otabek timsoliga tavsif:

a) Otabek — o‘qimishli, o‘z davrining yetuk kishisi;

b) Otabek — mard va jasur yigit;

d) Otabek — o‘z ahdiga sodiq, vafoli yor.

157-mashq. Gaplarni o‘qing. Nuqtali vergulning ishlatilish o‘rinlarini izohlang.

1. Hayhotday hovli fayzsiz; daraxtlar ostini o‘t-o‘lan bosgan, hovlining etak tomonida bir juft yirik-yirik qarg‘a loqayd kezib yuribdi. (O. Otaxonov) Obidjon borib pechkaning ichiga qo‘l tiqadi: nimanidir mahkam ushlaydi. (A. Qahhor)

2. «Kamolot — KOMPYUTER» biznes maktabi quyidagi o‘quv kurslariga taklif qiladi:

Bir oylik kurslarga:

— buxgalteriya dasturi bilan ishlash ta‘limi;

— video operatorlari kursi;

— INTERNET ga o‘qitish.

Ikki oylik kurslarga:

— zamonaviy buxgalteriya hisobi;

— bank ishi;

— kompyuterda ishlash ta‘limi;

— sartaroshlik kursi;

— professional fotograflar.

3. Toshkentning asl nomi Chochdir. Choch — Xirmon o‘rni ma‘nosida. So‘ngroq Choch Shoshga aylanadi. Oxirgi asrlardagina Shosh Toshga aylanadi; Toshkent atala boshlandi. (G‘. G‘ulom)

158-mashq. Gaplarni o‘qib, qoldirilgan tinish belgilarini toping va daftaringizga to‘g‘rilab ko‘chirib yozing.

1. Omon Muxtorov shunday degan edi: Abdulla Qahhorning shaxsiy ko‘zoynagi bo‘lmaganida, u hech qachon Qahhor bo‘lmasdi.
2. Quyidagilar demokratiyaning asosiy tamoyillari ataladi:
xalqning erkin xohish-irodaga ega ekanligi;
fuqarolarning teng huquqliligi;
inson huquqlarining barcha narsadan ustuvorligi;
hokimiyat organlarining saylab qo‘yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishga burchli ekanligi.
3. 11.20 yoshlar telekanalida harbiy vatanparvarlik dasturi. 1. Mard-u maydon. 2. Askar maktublari.
4. Insonda hamma narsa go‘zal bo‘lmog‘i lozim: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi ham, fikri ham.
5. I.A. Karimovning «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarini o‘qib chiqib muhokama qildik.
6. Ma‘rifat ro‘znomasining manzili: 700085, Toshkent. Matbuotchilar ko‘chasi, 32.
7. Bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Pitsburg komandasi Boston klubini 6 : 4 hisobida mag‘lubiyatga uchratdi.

Tinish belgilarining qo‘shaloq holda ishlatilish o‘rinlari

O‘zbek yozuvida uslubiy aniqlik, ravonlik hamda turli xil leksik-grammatik ma’nolarni ifodalash uchun tinish belgilarini qo‘llash hollari ham uchrab turadi. Ularning qo‘llanilishidagi asosiy o‘rinlar quyidagilardan iborat:

1. His-hayajon bilan aytilgan so‘roq gaplar oxirida so‘roq va undov belgilari ketma-ket qo‘yiladi.
— *Axir, ablah, — derdi Yunus, — bironing uyiga oyog‘ingni artmasdan kirgani ibo qilasan, nega havoni bulg‘atgani ibo qilmaysan?! (A. Qahhor)*
2. So‘roq va undov gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilsa, ketma-ket ikkita yoki uchta bir xil belgi qo‘yilishi mumkin. *Ey, purviqor tog‘lar! Nega jimsizlar, nega!!! (A. Cho‘lpon)*
3. So‘roq va undov mazmunini bildirgan gaplarda fikr tugallanmay qolsa, mazkur belgilardan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi.
«*Ertaga! — deya xotirjam dilidan o‘tkazdi va birdan to‘xtadi — xo‘sh, ertaga nima bo‘ladi?..*»
(N. Qilichev) *Berkinboy tuyqusdan tilla topganday quvonib-suyunib, turgan joyida dik-dik sakray boshladi:*
— *Topdi-mm!.. Topdi-im!.. (Sh. Bo‘taev).*
4. Muallif gapi va ko‘chirma gaplar o‘rtasida tinish belgilari ketma-ket ishlatilishi mumkin.
«*Adabiyot hunar, uni kasbga aylantirib olgan yozuvchi olmaga tushgan qurtdan farq qilmaydi*», — *deb yozgan edi A. Qahhor.*

159-mashq. Matnlarni o‘qing. Tinish belgilarining qo‘sh ishlatilish sabablarini tushuntiring.

O‘z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o‘z ko‘ngli qadar tund va xo‘mrangan bo‘lishini istagan Razzoq so‘fi xuddi shu ola-to‘polon ustiga kirib keldi!

Eshikdan kirar-kirmas ovozi boricha:

— Bu nima qiyomat!!! — deb shovqin solishi ikkala yosh qizni chaqmoq tekkan daraxtdek turgan joylarida qotirib qo‘ydi.

Rahimbiy (bo‘g‘iq). Bu kim?.. Kim bu?..

Xayol (taxtga qarab). Ey qora kuch, ey qurib ketgur taxt!

... Ey, qop-qora saodat, sensan?!

Ey, insonning dushman tangrisi, qachong'acha bu ongsizlar to'dasini o'zingga ham topindirib hali qurbon qilasan?! Ey boyqushlar qafasi, bunday dev ishtahalik hayvonlarning qo'li bilan qachong'acha dunyolarni bir-biriga urib turasan?!

Rahimbiy (o'yilar). Afrosiyob deydir. Otamdan qochdim deydir. (Bir-ikki odim bosib, qo'rqa-qo'rqa) Sen kimsan?..

Xayol. Men... Sening kabi bir zolim qo'linda mana shuning kabi (Abdumo'minning o'ligini ko'rsatib) hech narsani bilmayin, onglamayin bo'g'izlang'on bir mazlum — Siyovush!.. (A. Fitrat)

160-mashq. Gaplarni o'qib, tinish belgilarining qo'yilish sabablarini izohlang.

1. — Daraxt shoxlarining egilishini ko'r.

— Egilaversin. Hay!.. Ehe-hey!!! Egilaver, shamol, shamo-o-l. E-sa-ve-e-r! (O.Otaxonov)

2. — Nima qilaman bunaqa dorilarni?! — dedi jabrlangan. — Menga serebralizin kerak!!! (O'lmas Muhiddin)

3. Guvohlar. Yo, alhazar!..

Navro'z. Qo'yvormang! (Guvohlarga.) Qani, yuringlar!

Qorining tovushi. Voy!.. Voy qo'lim!.. Oh!.. (A. Qahhor)

4. Bo'ldim-bo'ldim, surxoni bo'ldim-baycha deyin-da.

— Klarabaycha? O'ynab-kulibgina yuribsizmi, Klarabaycha?..

— Nima-nima?

— Klarabaycha?

Ayol lab burdi. Ayol qosh kerdi.

— Baycha? Kakaya baycha? — dedi, — Men Klara Xodjayevnaman!

Men nima deyishimni bilmadim... (T. Murod)

161-mashq. Uyga vazifa. Gaplarni o'qing. Tinish belgilarining ishlatilish sabablarini tushuntirib bering.

1. — O', qardosh, sen faylasuf ekansan. Qo'y, bu gaplarni.

— Bu falsafa emas, bu haqiqat! — dedi Chuvrindi haqoratlangan odamning ovozida. — Avvalgi kuni, idorangizda bizni ancha masalalarda aybladingiz. Mehmoningiz edim, chidab eshitdim. Bizni o'zbek (!) deydilar. Mayli, qaysilarimiz noahildirmiz, boshqadirmiz, lekin o'zbekimiz, «o'z»imizga «bek»imiz. Qullikni hazm qilolmaymiz. (T. Malik)

2. — Shayx Sa'diyning hikmatli so'zi bor: «Har bir hurigan itni quva bersang, manzilga qachon yetasan?»

3. Ijtimoiy-milliy taraqqiyotning bosh yo'nalishlari:

— demokratiya va qonuniylik;

— mulkchilik shakllarining rang-barangligi va bozor munosabatlari;

— yuksak ma'naviyat va madaniyat, kishilarni o'z tarixiga, xalqning ma'naviy merosi va an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash, jahon madaniyati yutuqlarini egallash;

— xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga kirib borish. (Yangi O'zbekistonning zafarli yili. — T: «Sharq», 1999, 4-bet).